

UDK: 332.33 (575)

YERDAN FOYDALANISHGA OID TEZKOR MA'LUMOTLAR BAZASINI YARATISHGA
QARATILGAN DASTURLAR TAHLILI

Turkmenov Xasan Ishimovich, dosent., Abdurahimova Mohigul Oybek qizi, magistrant.
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institute

Annotatsiya.

Ushbu maqolada yerdan foydalanishga oid tezkor ma'lumotlar bazasini yaratish va elektron dasturiy vositani joriy etish bo'yicha yaratilgan —YerAvtoBankll va yer uchastkalarida kadastr raqamlarini shakllantirish bazasini yaratish imkoniyatlarini ochib beruvchi elektron dasturlar ixtirosi bo'yicha tahlillar keltirilgan.

Kalit so'zlar: yer uchastkasi, kadastr raqami, yer kadastr, yer resurslarini boshqarish, identifikatsiya, ma'lumotlar oynasi.

ПРОГРАММЫ, НАПРАВЛЕННЫЕ НА СОЗДАНИЕ ИНТЕНСИВНОЙ БАЗЫ ДАННЫХ О ЗЕМЛЕПОЛЬЗОВАНИИ

Аннотация.

В статье приведена вновь созданная электронная «ЕрАвтоБанк» для разработки оперативной базы информации по использованию земельных участков и как средств программной обеспечением, а также анализируются имеющиеся электронные программы для определения возможности установления кадастровых номеров земельных участков.

Ключевые слова: земельный участок, кадастровый номер, земельный кадастр, управление земельными ресурсами, идентификация, окно данных.

ANALYSIS OF PROGRAMS AIMED AT CREATING AN INTENSIVE LAND DATABASE

Abstract.

The article presents the newly created electronic —YerAvtoBankll for the development of an operational database of information on the use of land plots and as software tools, and also analyses the available electronic programs to determine the possibility of identifying cadastral numbers of land plots.

Key words: land plot, cadastral number, land cadastre, land management, identification, data window.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 17-iyuldagi —O'zbekiston Respublikasi davlat kadastrlari yagona tizimini tashkil etish hamda uni yuritish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqidagi 255-sonli qaroriga binoan bugungi kunda Respublikada qator tadbirlar amalga oshirilmoqda [1]. Bizga ma'lumki, davlat kadastrlarining yagona tizimi(DKYT) - bu barcha turdagi davlat va tarmoq kadastrlarini yagona tamoyil asosida birlashtiruvchi ko'p qirrali informatsion tizim hisoblanadi. Barcha sohalarda bo'lgani kabi kadastr ma'lumotlarini ham tez va samarali tarzda foydalanuvchiga yetkazishda tezkor ma'lumotlar bazasini va elektron dasturini yaratishga sezilarli ehtiyoj kelib chiqdi. Yer kadastr ma'lumotlarini hozirgi sharoitda ayniqsa yer tuzish ishlarini, jumladan xo'jaliklararo va ichki xo'jalik yer tuzish loyihalarini iqtisodiy jihatdan asoslashda o'ta zarurdir. Respublika ma'muriy tumanlari hududida yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarni ro'yxatga olishda yagona avtomatlashtirilgan tizimdan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. —YerAvtoBankll elektron dasturi ana shunday axborotlar bazasini to'g'ri shakllantirish imkonini beradi.


—YerAvtoBankll – bu yerdan foydalanish obyektlarida yo'qlama qilish ishlarini yuritish hamda ularni yer resurslari va davlat kadastr xizmatlariga berish natijalarini ro'yxatga olish, saqlash, o'zgarishlarini kiritish hamda tahlil qilishga mo'ljallangan. —YerAvtoBankll ma'lumotlar bazasidagi ishlar natijalarini rasmiylashtirish va ma'lumotlarni qayta ishlash uchun —O'zbekiston Respublikasi yer fondilga, shuningdek, —binolar va inshootlarning yagona klassifikatoriil rioya qilingan holda yaratilgan hisobotlar ko'zda tutilgan.

Tadqiqot uslubiyoti. Ushbu maqolada —Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi subyektlar uchun yerdan foydalanishga oid tezkor ma'lumotlar bazasini yaratish va elektron dasturiy vositani joriy etish ll mavzusidagi innovatsion loyihaga oid —YerAvtoBankll elektron dasturidan foydalanish hamda Yer uchastkalarida Kadastr raqamlarini shakllantirish bazasini yaratish imkoniyatlarini ochib berish bo'yicha tahlillar keltirilgan.


Dastur mualliflari Rahmonov Qosimjon Rahmonovich(UZ), Rahmonov Sherzod Qosimjonovich(UZ) (talabnoma № DGU 2015 01115, 23.04.2015). Ushbu ixtironing qisqacha mazmuni:

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi subyektlar uchun yerdan foydalanishga oid tezkor ma'lumotlar bazasini yaratish va elektron dasturiy vositani joriy etish imkonini beradi(1-rasm).

Natijalari. Ushbu dasturdan samarali va unumli foydalanish Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi subyektlar uchun yerdan foydalanishga oid tezkor ma'lumotlar bazasini yaratish va elektron dasturiy vositani joriy etish uslublarini bevosita amaliyotda qo'llash =ko'nikmalarini yaratadi. Bunda mazkur dastur asosida YerAvtoBank bazasini yaratish va undan foydalanish imkoniyatlarini ochib beradi. Jumladan, —Huquqiy ma'lumotlarl oynasi orqali yer uchastkasiga tegishli huquqiy ma'lumotlarni olish imkoniyati tez va qulay tarzda amalga oshiriladi(2-rasm). Ular quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi: dalolatnoma berilgan sana, dalolatnoma raqami, yerdan foydalanish muddati, yerdan foydalanish maqsadi, yerdan foydalanuvchi sub'yektning ixtisosligi, yuridik shaxs nomi, yuridik shaxs rahbarining familiyasi, yuridik shaxs rahbarining ismi, otasining ismi, pasport ma'lumotlari, mulkchilik huquqini beruvchi hujjat, hujjat raqami, viloyat hokimining qarori (agar mavjud bo'lsa), tuman hokimining qarori (agar mavjud bo'lsa), ko'chmas mulkka egalik hujjat nomi, ko'chmas mulkka egalik hujjat, raqami, yashash manzili, patent raqami (agar mavjud bo'lsa), inn raqami, yerdan foydalanishda qonun buzilishlar soni, yerdan foydalanishda qonun buzilishlari bo'yicha jarima miqdori [2].



1-rasm. Dasturning dastlabki oynasi



2-rasm. Dasturning —Huquqiy ma'lumotlarl oynasi

Ma'lumki, kadastr raqami yer uchastkasi, bino, inshootga tegishli O'zbekiston Respublikasi hududida takrorlanmaydigan raqamdir, u qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibda uni shakllantirishda beriladi va u ro'yxatdan o'tkazilgan huquqning yagona obyekti sifatida mavjud bo'lguniga qadar saqlanib qoladi. Shuningdek, yer uchastkalari, binolar va inshootlarni O'zbekiston Respublikasida identifikatsiyalash tizimi yagona prinsip bo'yicha quriladi, unga yer uchastkasining kadastr raqami asos qilib olinadi. Har bir yer uchastkasiga kadastr raqamini berish, ko'chmas mulkni hisobga olishning yagona tizimida har qanday yer uchastkasini, ularda esa bino va inshootlarni bir xilda identifikatsiyalashni ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 31-dekabrda —O'zbekiston Respublikasi hududlarini kadastr bo'yicha bo'lish hamda yer uchastkalari, binolar va inshootlarning kadastr raqamlarini shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqidagi 492-sonli qaroriga binoan bugungi kunda Respublikada qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Qarorning o'n beshinchi bandiga muvofiq, yer uchastkalariga, binolar va inshootlarga, binolarning, inshootlarning bir qismiga kadastr raqamlari berishtuman (shahar) yer-kadastr daftarini to'ldirishda hamda binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritishda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri yer tuzish va ko'chmas mulk kadastrini davlat korxonalarining tegishli filiallari tomonidan amalga oshiriladi [3].


Dastur muallifi Rahmonov Sherzod Qosimjonovich(UZ) (talabnoma № DGU 2015 0113, 23.04.2015). Ushbu ixtironing qisqacha mazmuni: Yer uchastkalarida Kadastr raqamlarini shakllantirish bazasini yaratish imkoniyatlarini ochib beradi (3-rasm).

Afzalliklari. Ushbu dasturdan samarali va unumli foydalanish Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi subyektlar uchun yerdan foydalanishga oid tezkor ma'lumotlar bazasini yaratish va elektron dasturiy vositani joriy etish uslublarini bevosita amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini yaratadi. Bunda mazkur dastur yer uchastkalarida Kadastr raqamlarini shakllantirish bazasini yaratish imkoniyatlarini yuzaga chiqarib beradi. Dasturning —ma'lumotlarni kiritishl oynasi orqali quyidagi ma'lumotlarni kiritishimiz mumkin: viloyatning kadastr raqami, tumanning kadastr raqami, kadastr zonasi raqami, kadastr massivi raqami, kadastr mavzesi raqami, yer uchastkasining kadastr raqami, bino va

inshoot kadastr raqami, bino va inshoot bir bo'lagining kadastr raqami, obyekt egasi, obyekt nomi, obyekt inn si(4-rasm).



3- rasm. Dasturning dalstlabki oynasi



4-rasm. —ma'lumotlarni kiritish oynasi

Xulosalar. —Yeravtobank elektron dasturi orqali yer-axborot bazasida quyidagilar ta'minlanadi:

-yer balansi shakllanishiga qadar yer uchastkalari va alohida obyektlar bo'yicha kadastr baholarini qayta ishlash hamda ma'lumotlarni tuman —Yer resurslari va davlat kadastr xizmatiga tezkor uslublarda yetkazishni ta'minlash;

-yer uchastkalari va alohida obyektlarni kadastr raqamlari, aloqa manzillari yoki foydalanuvchilarning nomlari bo'yicha axborotlarni qidirish va olish;

-foydalanish turi va funksional mohiyati bo'yicha yer uchastkalarining guruhlarini to'g'risidagi axborotlarni qidirish va tanlash;

-yer uchastkalarini yoqlama qilish, yer hisobi va yer baholash ishlarini elektron dastur yordamida shakllantirish va tuman yer resurslari hamda davlat kadastr xizmatiga uzatish uchun elektron hisobot shakllarini ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 17-iyuldagi —O'zbekiston Respublikasi davlat kadastrlari yagona tizimini tashkil etish hamda uni yuritish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqidagi 255-sonli qarori

2.QXI-6-12 sonli —Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi subyektlar uchun yerdan foydalanishga oid tezkor ma'lumotlar bazasini yaratish va elektron dasturiy vositani joriy etish mavzusidagi innovatsion loyihaga oid —YerAvtoBank elektron dasturidan foydalanish uchun uslubiy qo'llanma. Toshkent-2012

3.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 31-dekabrda —O'zbekiston Respublikasi hududlarini kadastr bo'yicha bo'lish hamda yer uchastkalari, binolar va inshootlarning kadastr raqamlarini shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqidagi 492-sonli qarori

4.QXI-6-12 sonli —Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi subyektlar uchun yerdan foydalanishga oid tezkor ma'lumotlar bazasini yaratish va elektron dasturiy vositani joriy etish mavzusidagi innovatsion loyihaga oid —Kadastr raqamlarini shakllantirish bazasining elektron dasturidan foydalanish uchun uslubiy qo'llanma. Toshkent-2012